

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KASB TANLASHGA QO'YILADIGAN TALABLAR.

Gadaymuratov Shuhrat Mamayusupovich

Texnologiya va geografiya kafedrası katta o'qituvchisi

Panjiyeva Mahfuza Nurmuhammad qizi

1-kurs Texnologik ta'lim yo'nalishi

Annotatsiya: Yoshlarning kasb tanlashida avvalo kasb tanlashda qo'yiladigan talablarning mohiyati va kasblarning asosiy muhitini va pedagogik mahoratning mukammalligi tahlil qilingan va asoslangan.

Kalit so'zlar: Iqtidor, qobiliyat, iste'dod, interfaol, pedagogik mahorat, innovatsiya, tashxislash, identifikatsiyalash, kasb, talab, pedagogika, mahorat.

Аннотация: При выборе профессии молодыми людьми, прежде всего, анализируется и обосновывается сущность требований к выбору профессии и базовой среды профессий и совершенства педагогического мастерства.

Ключевые слова: Талант, способность, талант, интерактив, педагогическое мастерство, новаторство, диагностика, идентификация, профессия, востребованность, педагогика, мастерство.

Xoziri zamon yoshlar qanchalik bilimli, tarbiyali, dunyoqarashi keng, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega vatanparvar bo'lib kamolga etsa, yangi O'zbekistonni qurishga shu qadar kamarbasta bo'ladi.

Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyat kerak. Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi. O'qituvchilik – inson ma'naviyatini yuksaltirishga, jamiyat taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan sharaflı kasblardan biridir. Ushbu kasbni tanlashda bo'lg'usi o'qituvchilarga qator talablar qo'yiladi. Bu talablar nafaqat kasbiy malaka, balki shaxsiy fazilatlarini ham o'z ichiga oladi.

Sharq donishmandlari aytganidek, "Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!" Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak. Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi.

O'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash davlat ahamiyatiga ega bo'lgan muammo. Yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash g'oyat muhim vazifadir. Shu boisdan yoshlarning kasb tanlash muammosi umumiy o'rta ta'lim maktabi ishida katta o'rin tutadi.

O'quvchilarning o'z qiziqishlari, mayl-ehtiyoj, iqtidor, qobiliyat, ko'nikma va malakalarini hisobga olgan holda, kasb tanlashga yo'naltirish jamiyatining rivoji uchun puxta zamin hozirlaydi.

Yurtimizning ravnaqi va ijobiy o'zgarish, muvaffaqiyatlar o'z kasbini ustasi bo'lgan fidoyi insonlar tufaylidir. O'quv jarayoni yangilangan dastur va standart talablariga javob beradigan darslar asosida tashkil etish shart va zarur, ya'ni zerikarli darslar o'rniga darslarni tashkil etishga ma'suliyati bilan yondashadigan, kasbiy bilimdon, metodik mahoratga ega ma'suliyatli, zamonaviy, interfaol pedagogik texnologiyani mukammal o'zlashtirib olgan, innovatsiyalar asosida ta'limni tashkil eta oladigan o'qituvchilarga talab oshib bormoqda. Ta'limda moddiy baza standart, o'quv rejalar, dastur va darsliklar qanchalik takomillashtirilmasin, kutilgan asosiy natijaga erishish, chuqur va puxta bilim berish, yuqori sifatdagi o'zlashtirishga erishish bevosita nazariy va amaliy mashg'ulotlarni olib boruvchi o'qituvchining ijodkorligi, izlanuvchanligi, malakasiga, pedagogik mahoratiga bog'lanib qolaveradi, o'quv-biluv markazida esa o'quvchi turmog'ini taqozo etadi. Har qanday ta'lim o'quvchi shaxsiga, uning qiziqish-xohish istagiga, ehtiyojiga qaratilmog'i lozim.

Ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligi o'quvchining o'quv mazmunini o'zlashtirishga yo'naltirilgan mustaqil mutolaabilan samarali shug'ullanishi, mustaqil fikr yuritish va taffakur faoliyatiga bog'liq. Mamlakatimizda so'nggi yillarda shaxs ravnaqi, uning komilligi va inson kapitali masalasi ta'lim islohotlarining bosh maqsadiga aylanib, oilaviy tarbiyaning inson ma'naviyati asosi sifatida oilalarni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish, uyushmagan yoshlar bilan ishlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan islohotlar natijasida yoshlarga jamiyatda o'z o'rnini topishga ko'maklashish, ular kasbga raqobatbardoshligini ta'minlash imkoniyatlari kengaydi. Bugungi kunda ota-onalarda farzandlarini kasbga yo'naltirish bo'yicha pedagogik madaniyatni rivojlantirish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

1. Kasbiy bilim va pedagogik mahorat

Bo'lg'usi o'qituvchi o'z sohasiga oid chuqur bilimga ega bo'lishi, pedagogik va psixologik bilimlarni yaxshi o'zlashtirishi lozim. U quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak:

- O'quvchilar bilan samarali muloqot qilish
- Ta'lim berish metodlarini qo'llay olish
- Zamonaviy texnologiyalardan foydalana olish
- Fanini qiziqarli va tushunarli yetkazib bera olish

2. Kommunikativ qobiliyat

O'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki yosh avlodni tarbiyalovchi murabbiy hamdir. Shu sababli, u yaxshi tinglovchi va tushunuvchi bo'lishi, o'quvchilar bilan do'stona va samimiy munosabat o'rnatish zarur. Shuningdek, o'qituvchi:

- Jamoada ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi
- Nutq madaniyatiga rioya qilishi
- O'z fikrini aniq va lo'nda yetkazib bera olishi lozim

3. Mas'uliyat va fidoyilik

O'qituvchilik kasbi fidoyilikni talab qiladi. O'qituvchi o'z ishiga mas'uliyat bilan yondashishi, bilim olish va berish jarayoniga chin yurakdan kirishishi muhim ahamiyatga ega. U:

- O'quvchilarga o'rnak bo'la olishi
- Vaqtni samarali boshqara olishi
- Intizom va tartibga rioya qilishi lozim

4. Innovatsion fikrlash va ijodkorlik

Zamonaviy o'qituvchi ta'lim jarayoniga yangiliklarni joriy eta olishi, ijodkorlik bilan yondasha olishi lozim. Yangi metodlarni izlash va ularni amaliyotda qo'llash bo'yicha quyidagi jihatlar muhimdir:

- Yangi texnologiyalar va o'qitish usullaridan foydalana olish
- Muammolarni ijodiy hal qilish qobiliyatiga ega bo'lish
- O'quvchilarning qiziqishlarini rag'batlantira olish

5. Doimiy rivojlanish va o'z ustida ishlash

O'qituvchi doimiy ravishda o'z ustida ishlashi, yangiliklarni o'rganib borishi lozim.

Buning uchun:

- Ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanish
- Malaka oshirish kurslarida qatnashish
- Zamonaviy pedagogika yutuqlarini o'zlashtirish kerak

O'quvchi va yoshlarning kasb-hunar tanlashlarida oila muhiti omili sifatida shuni ta'kidlash lozimki, bolalardagi qobiliyat, iqtidor va iste'dodni aniqlash yuzasidan hozirga davr ilmiy izlanishlari asosida ishlab chiqilgan maslahat va tavsiyalarning asosiy qismi o'quvchilar hamda ta'lim tizimixodimilari uchun mo'ljallangan. Aslida bolalardagi iqtidor va iste'dodini ilk yoshdan, barvaqt aniqlashdan hammadan ko'ra ularning ota-onalari manfaatdordirlar. Bolada tug'ma qobiliyat bo'lmagani holda zamonaviy o'qitish metodlariorqali unda qobiliyat va iste'dod shakllantirish mumkin degan xato tushunchaga berilib ketish ko'p hollarda barchaga birdek pand beradi. Lekin yo'qni bor qilish uchun bolani haddan ziyod zo'riqtirish, o'zi istamagan, kuchi etmagan topshiriq va vazifalarni yuklash unda turli deformatsiyalarga, ruhiy travmalarga, o'z imkoniyatlarini past baholash (yoki o'zini kamsitish) kabi holatlarga sabab bo'ladi.

Oilada farzandning iqtidori va layoqatini aniqlash uchun qator psixologik-pedagogik talablarni bajarish lozim. Ular farzandning o'zini-o'zi tutishi va faoliyatini kompleks baholash, farzand qobiliyati va tabiiy layoqatlarini tashxislash, iqtidorni belgilash usullarini qo'llash, identifikatsiyalash, o'z iqtidoriga farzandning munosabati o'zgarishi mumkinligi, turlicha bo'lishini anglash, farzandni davomiy va maqsadli kuzatish, farzand iqtidori uchun rivojlantiruvchi[3. 7] pedagogik muhit yaratib berish, farzandni rag'batlantiraolish. Demak, bundan avvalo bolada bor bo'lgan qobiliyat hamda iste'dodni aniqlash, uni tarbiyalash kerak degan xulosa chiqadi. Ota-ona oilaning boshlig'i hisoblanadi. Farzandlar haeti davomida ota-onalariga taqlid qiladilar.Oilalar tinch va farovon haet kechirish davomida o'z tajribalarini farzandlariga namuna sifatida qoldiradilar.

Xulosa qilib aytganda o'qituvchilar uchun kasb tanlash jarayoni mas'uliyatli va e'tiborli yondashuvni talab etadi. Yuqorida sanab o'tilgan talablar nafaqat o'qituvchilik kasbining muhim jihatlari, balki ta'lim sifati va kelajak avlod tarbiyasiga ham bevosita

ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, bu kasbni tanlash istagida bo'lganlar yuqori malaka, kuchli irodaga va samimiy fidoyilikka ega bo'lishlari lozim. Oila muqaddas uning jamiyatda o'rni muhimligini bilgan har bir farzand ota-onasiga munosib voris bo'lishligi bilan vataniga kerakli kadrlar bo'lib etishishlari uchun o'zlari yaxshi ko'rgan kasbini sevishlari, o'zlari yaratgan mehnat mahsullaridan qoniqish hisini tuyishlari kelajakka ishonch bilan boqishlariga muhim qadam deb hisoblaymiz.

ADABIYOTLAR:

1. Sh.M.Mirziyoev. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 24 yanvar xalq so'zi gazetasi.
2. Begmatova D. Oilada yoshlarning kasbiy ijtimoiylashuvini ta'minlashning pedagogik shart-sharoitlari. Avtoreferat 2019.
3. Gadaymuratov Sh.M (2023). Sinf dan tashqari mashg'ulotlarda kasbhunarga yo'naltirish ishlarini takomillashtirish. Interpretation and researches, 2(1).
4. Mamayusupovich, G. Sh. (2022). Professional Competence Development of Future
5. Technological Education Teachers. Journal of Intellectual Property and
6. Human Rights, 73-75.
7. Gadaymuratov Sh. M. (2022). Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 3(5), 5-7.
8. Eshpulatova Jang'il Eshonqulovna, . (2023). METHODOLOGY OF DEVELOPMENT OF CREATIVE SKILLS OF PRIMARY CLASS STUDENTS. *International Journal of Pedagogics*, 3(03), 25–31. <https://doi.org/10.37547/ijp/Volume03Issue03-05>
9. Zhangil ESHPULATOVA. (2023). CRITERIA FOR DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING ABILITY OF PRIMARY CLASS STUDENTS. *World Bulletin of Social Sciences*, 27, 1-5. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3218>.